



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA DARSLIK LARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Allabergenova Muqaddas Turayevna,**  
*Nukus davlat pedagogika institutining  
sirtqi bo‘limi boshlang‘ich ta‘lim  
yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

**Annnotaciya:** *Bu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda darsliklarning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z etiladi. Matematika fanini o‘qitishda darsliklarning o‘rni juda kattaligi va hozirgi kunda olib borilayotgan ishlarga ham to‘qalib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Matematika, ta‘lim, integraciya, darslik, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar.*

Ta‘lim bu - mamlakat taraqqiyoti va rivojlanishining asosiy sharti va asosiy elementi. Shuning uchun bugungi kunda kelgusi yillar uchun mamlakatni rivojlantirish strategiyasining asosiy mavzularidan biri tizim va tarkibni (o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqalar) takomillashtirish bo‘lmoqda.

Bugungi davr dunyo ta‘limi oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda. Bunda asosiy talab yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishni o‘rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga e‘tibor qaratilmoqda.

Darslik hamda o‘quv-metodik qo‘llanmani yaratishda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganildi. Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining tavsiyalari inobatga olindi. Darslikda mavzular sodda, tushunarli tilda, hayotiy masalalar yordamida yoritilgan va rang-barang rasmlar bilan bezatilgan. Fanlararo integratsiya ta‘minlangan. Darslik asosan o‘quvchilarda matematik bilim, tasavvur, tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning imkoniyatlari, yoshi, individual xususiyatlari, XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini inobatga olgan holda yozilgan. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon spiralsimon tarzda rivojlanib boradi.

Ayniqsa bu yildan boshlab boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan matematika darslari ta‘lim standartlariga mos, o‘z dizayniga ega bo‘lgan kitob hisoblanadi. Darslikdagi berilgan mavzular bolalarning yoshiga mos ravishda berilgan. Ulardagi rasmlar ham rang-barang, juda chiroyli qilib berilgan. Mavzuga doir berilgan yondosh mavzular hozirgi zamon bilan, turmush tarzi bilan bog‘liq holda berilgan. Mavzulardagi yondosh mavzular o‘quvchilarning fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birgalikda, berilgan mavzularni aniq tushunib olishga ham yordam beradi.



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Darslik oxirida qo'shimcha o'rganish uchun tavsiya sifatida "Qiziqarli va mantiqiy topshiriqlar", "Xalqaro baholash dasturiga oid topshiriqlar" bo'limlari keltirilgan. Ulardan mavzuni o'zlashtirishda yaxshi natijalarga erishayotgan o'quvchilar bilan ishlashda yoki o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda foydalanish mumkin. Odatda o'quvchilar mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni mustahkamlagandan so'ng qiziqarli topshiriqlar kutishadi. Bu topshiriqlarni o'quv yili yoki dars so'ngida emas, balki dars jarayonida barchaga muammo sifatida taqdim etish orqali o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchni, do'stona hamkorlikni his qilishiga imkoniyat yaratiladi hamda ularga ishonch va g'ayrat bag'ishlanadi. [2:7]

Zamonaviy o'qituvchi qo'llayotgan texnologiyalarining natijasiga qarab metodologiyasi (kasbiy mahorati) kuchli deb baholanadi. Demak, o'qituvchi o'z ustida ishlashi, pedagogik-psixologik qonuniyatlarga tayangan holda rejalarini, umumiy maqsadlarini, maqsadga erishish yo'llarini (turli shakl va metodlar, didaktik tamoyillar) hamda bergan bilimlari kelgusida muhim ahamiyat kasb etishini aniq bilishi kerak. Zero, ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlari birgalikda yetuk shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, yozma va og'zaki muloqot madaniyatini shakllantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqarish, turli ma'lumotlar bilan ishlash savodxonligini oshirish, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishi uchun samarali ta'limiy faoliyatni tashkil etishdan iborat. Bunda, avvalo, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining bilimi, salohiyati va kasbiy mahorati yuksak bo'lishi, shuningdek, ta'lim jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida va oqilona qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega.

Farzandlarimizning yuksak intellektual salohiyatli, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Ayniqsa, bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'lim davri muhim rol o'ynaydi. Shu bois mamlakatimiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. [1:3]

Boshlang'ich ta'lim ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichlariga asos - poydevor vasifasini o'tashi, ayniqsa, bu davrdagi bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixologiyasi o'ziga xosligidan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur bosqichda tashkil



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

etiladigan darslar bolalar ruhiyatiga mos, qiziqarli hamda turli o'yinlarga asoslangan tarzda tashkil etilishi shart. Buning uchun o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, tashabbuskorlikka, masalalar yechimini hamkorlikda topishga, fikrni yozma va og'zaki ravishda erkin bayon etishga o'rgatib borishi, shuningdek, dars jarayonida interfaol metod hamda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan o'z o'rnida va samarali foydalana olishi muhim omillardan sanaladi. Aytib o'tilgan omillarning uyg'unligi, ya'ni o'qituvchining qobiliyati, mahorati va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar ta'lim sifati hamda samaradorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talab va e'tibor alohida o'rin tutadi. Chunki an'anaviy ta'limda o'quvchilarga faqat tayyor holda bilimlar berilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, bilimlarini mustaqil qidirib topish, tahlil qilish va shu asosda xulosa chiqarishga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatiladi. O'qituvchi esa bu jarayonda ularni yo'naltirib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qulay ta'lim-tarbiyaviy sharoit yaratadi.

Darslarni zamon talablariga mos, samarali tashkil etish darslik hamda ular asosida yaratilgan turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar hamda dars ishlanmalarining sifatiga ham bog'liq, albatta. Bugungi kunda maktab darsliklariga qo'yilgan talab juda yuqori. Shuning uchun ular mamlakatimizda turli darslik va o'quv adabiyotlari yaratishning ko'p yillik tajribasi hamda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarni qiyosan o'rganish, ularning eng maqbullaridan foydalanish asosida yaratilmoqda. Natijada darslik va o'quv qo'llanmalar bolalarning to'laqonli va sifatli ta'lim olishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun ham darsliklarga hamohang, o'zida interfaol metod va innovatsion axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar hamda namunaviy dars ishlanmalarini aks ettirgan metodik qo'llanmalar yaratilmoqda. Bunday metodik qo'llanmalar o'qituvchilarga dars jarayonini to'g'ri tashkil etishga, har bir darsga mos interfaol metodlar, trenajyor mashq va multimedialardan foydalanishga juda katta yordam beradi. [2:6]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari, ularning savodxonligini oshirish yo'lida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan



# «ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

shu jajji farzandlarimizni o‘qitishdagi bugungi yaratilayotgan matematika darsliklari kelgusida hayot chorrahalarida mustaqil ildamlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Abdullayeva [va boshq.]. Matematika: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma . - T .: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2016. – 3-4 b.
2. L. O‘rinboyeva, X. Yusupov [va boshqalar.]. Matematika: 3-sinf Ta’lim o‘zbek va qardosh tillarda olib boriladigan maktablari o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. OOO “IMPERIAL PRINT” bilan hamkorlikda “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Toshkent – 2022 yil. 6-7-bet.